

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**INNOVATIVE APPROACH TO FORMING LINGUISTIC COMPETENCIES IN STUDENTS IN MOTHER LANGUAGE CLASSES**

Nilufar Makhamjanovna Abdullayeva

PhD, associate professor

Tashkent Perfect University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: innovation, innovative education, innovative technology, innovative process, competence, linguistic competence.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: this article focuses on innovative education, the benefits of innovative education, the development of students' linguistic competencies through the use of innovative technologies.

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Nilufar Maxamadjanovna Abdullayeva

PhD, dozent

Toshkent Perfect universiteti

Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion ta'lif, innovatsion texnologiya, innovatsion jarayon, kompetentlik, lingvistik kompetensiya.

Annotatsiya: ushbu maqolada innovatsion ta'lif, innovatsion ta'lifning afzalliklari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ОБУЧАЮЩИХСЯ НА ЗАНЯТИЯХ РОЖДНОГО ЯЗЫКА

Нилуфар Махамаджановна Абдуллаева

PhD, доцент

Ташкентский Perfect University

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инновационное и инновационные

слова:

инновации, образование, внимание техноло-гии,

Аннотация: в данной статье основное внимание уделяется инновационному образованию,

инновационный процесс, компетентность, лингвистическая компетентность.

инновационного образования, развитию языковых компетенций учащихся за счет использования инновационных технологий.

KIRISH

Mustaqillik yillarida ta’lim sohasi tubdan yangilanib, o‘qitishning ilg‘or usul va metodlarini amalda qo‘llash bo‘yicha ulkan tajriba to‘plandi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv-laboratoriya anjomlari, zamonaviy o‘quv-metodik baza tatbiq etilmoqda. Bugun zamon shiddatli tarzda rivojlanyapti. Demak, umumiyl o‘rta fanlarini o‘qitishga zamon talablari asosida yondashish, ta‘limda eng ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash davr talabi. Umumiyl o‘rta fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bo‘yicha davlat ta‘lim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish maqsadida qabul qilingan mazkur qaror ta‘lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash miliy dasturi talablari asosida qabul qilingan qarorlarda umumiyl o‘rta ta‘limning yangi davlat ta‘lim standartlari ilova tarzda berilgan edi. Yangi DTSning maqsadi esa – umumiyl o‘rta ta‘lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborotkommunikatsiya texnolo-giyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma‘naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Xususan, yangi DTSga fanga oid kompetentsiyalar bilan birga kommunikativ, axborot bilan ishslash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, miliy va umummadaniy, matematik savod-xonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kabi tayanch kompetentsiyalar elementlari ham kiritildi [1].

Kommunikativ kompetentsiya bolaning ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olishi, muomala madaniyatiga amal qilishi, moslashuvchan va hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatiga ega bo‘lishini nazarda tutadi.

Axborot bilan ishslash kompetentsiyasiga ega bola esa mediamanbalardan zarur ma‘lumotlarni izlab topa olishi, saralashi, qayta ishlashi va ulardan samarali foydalanishi, mediamadaniyatga ega bo‘lishi lozim. Bunday o‘zgarishlar har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi sa‘y-harakatlarni kuchaytirishga muhim asos bo‘ladi. Bu kelgusida yuqori malakali va raqobatbardosh, kompetentli mutaxassis-kadrlarni tayyorlash ishlarini yanada jadallashtiradi. Bundan tashqari 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni ijrosini ta’minalash maqsadida ishlab chiqilgan. Konsepsiya o‘zbek tilini uzoq muddatli rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi hamda quyidagi maqsadli vazifalarga erishishni nazarda tutadi:

- o‘zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirish;
- o‘zbek tili ta’limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an’ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan g‘ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash;
- jamiyatda o‘zbek tiliga (davlat tiliga) hurmat-e’tibor va mehr-muhabbat muhitini shakllantirish;
- mamlakatimizda har bir fuqaroning davlat tilini bilishiga va buni burch va majburiyat sifatida his etishiga erishish;
- o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida mamlakat taraqqiyotining yangi davrida davlat tilini rivojlantirishni yuksak bosqichga ko‘tarish;
- respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining to‘liq joriy etilishini ta’minalash, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillash-tirish.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Davlat tilining mavqeい kundan-kunga oshib, hurmat-e’tibor topmoqda. Davlat ta‘lim standartlari, shu jumladan, ona tili davlat ta‘lim standarti ham ta‘lim jarayoni oldiga qo‘yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab beriladi. Ona tili ta‘limi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr maxsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya‘ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta‘limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yiladi.

Ta‘lim faoliyatini tashkilqilish va amalga oshirish jarayoni bilimniuzatish, uniqabul qilish, anglash, esda saqlash va amaldaqo‘llay olishni nazarda tutadi. Bugungikunda ta‘limning barcha bosqichlariga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali va oqilona foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab darsotish o‘quvchilarda ilmiy-nazariybilmilarni mustaqil egallash, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, shu asosida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshiradi. Ijodiyqobiliyatlarini aniqlash, ro‘yobgachiqarish, o‘qituvchi-o‘quvchihamkorligini shakllantirish va kafolatlangan yaku-niy natijaga erishishnita’minalaydi, o‘quvchini o‘quv jarayonining faolqatnash-chisiga aylantiradi. Bundan ko‘rinadiki, yuksak ma’naviy-axloqiysalohiyatga ega bo‘lgan avlodnivoyaga yetkazish, ularning

ilmiydunyoqarashini bugungi kun talablari asosida shakllantirish ta'lim oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardandir.

Keng ma'noda "innovatsiya" pedagogik tizimga yangilik kiritish yo'li bilan ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Pedagogik tizimga uning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarni "innovatsiya" deb tushunamiz. Ushbu tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va natijadorlikka erishishga oid fikr, g'oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin.

ASOSIY QISM

Innovatsion ta'lim shundayki, u o'zini rivojlantirish istagiga ega barcha ishtirokchilar uchun sharoit yaratadi, boshqacha aytganda, innovatsion ta'lim rivojlanuvchi va rivojlantiruvchi ta'limdir. O'quvchilarda o'qish istagini shakllantirish va buni malakaga aylantirish – barcha innovatsion ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunday ta'lim jarayoni o'quvchining o'quvlish faoliyatida faol ishtirokini va uning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishni nazarda tutadi.

Ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida innovatsiyalashtirish pedagogik jarayonda pedagog va o'quvchi o'rtaida yuzaga keluvchi muloqot jarayonining samarali bo'lishi, mazkur jarayonning innovatsion mazmun-mohiyat kasb etilishidir. Dars jarayoniga yangiliklarni kiritish innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi. Innovatsion jarayon quyidagi uchta asosiy bosqichlarning rivojlanishi sifatida qarab chiqiladi:

- fikrlarning shakllantirilishi;
- o'quvchilar tomonidan g'oyalalar ishlab chiqish;
- amaliy tarzda g'oyalarning ishlab chiqilishi va yangilikning amaliyotda qo'llanilishi.

O'qituvchi ta'lim tizimi bo'yicha yangilik va g'oyalarni amaliyotga tatbiq etib borishi fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish hisobla-nadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning bosh maqsadi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Bunda o'qituvchi darsga mos pedagogik texnologiyani to'g'ri tanlay olishi, qo'llashi juda muhimdir.

Ta'lim metodlarini tanlashning mezoni – dars jarayonidagi o'quvchilarning sonini ham hisobga olinishidir. Agar ularning soni ko'p bo'lmasa, u holda faol o'qitish metodlaridan foydalanish mumkin. Agar sinfdagi o'quvchilar soni ko'p bo'lsa, ularning har biriga e'tibor berish uchun vaqt yetishmasligi natijasida tahsil oluvchilarni boshqarish murakkablashadi va bunda guruhlarda ishslash yaxshi samara beradi. Buyuk mutafakkir Al Forobiy o'zining o'qitish metodlari haqidagi fikrlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerak ekanligini uqtiradi.

Bilamizki, kompetensiyaviy yondashuv umumiy o‘rta ta’limni moderniza-tsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’limstandartida kompetensiya tushunchasigaquyidagicha ta’rifberilgan: kompetensiya – mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatdaqo‘llay olish qobiliyatidir, ya’ni kompetensiya bu aniq faoliyatni amalga oshirish uchun bilim vatajribalarga ega bo‘lgan shaxs tavsifi bo‘lib, u ta’lim oluvchi tomonidan alohidabilim va ko‘nikmalarni emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yichaintegrallashgan bilimlar va sifatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Bilim, ko‘nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo‘llay olish qibiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Masalan, ona tili fani mazmunida asosiy e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu lingvistik bilimlar vositasida o‘quvchi-larning kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og‘za-ki va yozma erkin muloqot yurita olishlari nazarda tutiladi. Mazkur kompeten-siyalar boshlang‘ich ta’limdan boshlab, bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi.

Til hodisalari, til kategoriyalari boshqa hodisalarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi. Biologik tushunchalarni shakllantirishda belgilarini kuzatish, bir tizimga solish va umumlashtirish mumkin bo‘lgan aniq hodisalar va predmetlar material sifatida asos qilib olinadi. Grammatik tushunchalar esa so‘z, so‘z birikmasi, gap, morfema, leksema, fonema va boshqalaming o‘ziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kishilar tomonidan yaratilgan grammatik tushunchaga asos bo‘lgan dastlabki materialning o‘zi yetarli darajada mavhumdir. Demak, grammatik tushunchalar umumlashtirilganlarning yana umumlashtirilgani hisoblanadi. Grammatik tushunchaning bu xususiyatlari tufayli o‘quvchilarda tushuncha juda ko‘p qiyinchilik bilan shakllanadi.

Grammatik tushunchani bilib olish uchun mavhum tafakkur ma’lum darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Mavhum tafakkur ta’lim jarayonida vujudga keladi va maxsus mashqlarni talab qiladi. Bu mashqlar muayyan aqliy ko‘nikmalarni va lingvistik tasavvur hamda bilimlar yig‘indisini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Ko‘pgina ruhshunos olimlarning tekshirishlari natijasida aniqlanishicha, tushunchani shakllantirish jarayoni tafakkurga oid analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlashtirish amallarini bilib olish jarayoni ham hisoblanadi. O‘quvchilarda tushunchani shakllantirishning natijasi ularning mavhumlashtirish faoliyatining qay darajada o‘sganligiga bog‘liq.

Mavhumlashtirishda qiynaladigan o‘quvchilar so‘zlarni taqqoslay olmaydilar va ularning muhim grammatik belgilariga ko‘ra bir guruhga birlashtira olmaydilar, tushunchani shakllantirishda qiynaladilar va xatoga yo‘l qo‘yadilar. Masalan, fe’l o‘rganilganda o‘quvchilar fe’l predmetning harakatini bildirishini bilib oladilar. Yurmoq, o‘qimoq, olmoq kabi fe’llarda leksik ma’no grammatik ma’noga mos keladi. Ko‘p fe’llarda bunday moslik bo‘lmaydi.

Grammatikada predmet harakati deyilganda, harakat bilan birga predmet-ning holati, uning boshqa predmetlarga munosabati, predmet belgisining o‘zgarishi kabilar ham tushuniladi: uxlamoq, o‘ylamoq, sevmoq, o‘smoq, ko‘karmoq va hokazo. Predmet harakatini bunday keng ma’noda, umumlashtirilgan holda tushunish endigina tilni o‘rgana boshlagan o‘quvchilarga qiyinlik qiladi, ular harakatni ko‘proq yurish, siljish ma’nosida aniq tasavvur qiladilar. Shuning uchun fe’lni o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida yotmoq, kasallanmoq, turmoq, qizarmoq kabi so‘zlarni predmet harakatini bildiradi deb hisoblamaydilar. Bunday hodisani otni o‘rganishda ham uchratish mumkin. Ayrim o‘quvchilar tinchlik, qahramonlik, qadam kabi so‘zlarni ot turkumiga kiritmaydilar [2].

Tushunchani shakllantirish uchun o‘quvchilarda mavhumlashtirish ko‘nik-masini o‘stirish, ular diqqatini so‘zning aniq leksik ma’nosidan grammatik ma’nosiga qaratish va shu guruhdagi so‘zlarga oid umumiyligi, grammatik belgilarni hisobga olgan holda, ularni bir guruhga birlashtirish talab etiladi. Masalan, kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan barcha so‘zlar „ot“ turkumiga birlashadi, predmet bildirish, son (birlik va ko‘plikda kelish), egalik qo‘sishchalari bilan o‘zgarish, kelishiklar bilan turlanish bu so‘zlar uchun umumiyligi grammatik belgilarni hisoblanadi. Tushunchani shakllantirishda xatoning oldini olish uchun ta’lim berish jarayonida qator metodik talablarga rioya qilinadi. Ona tili darslarida til hodisalari ma’nosini (semantikasi), qurilishi, vazifasi jihatidan o‘rganiladi.

Taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori A.Nurmonovning fikricha, kompetensiyaviy ta’lim konseptsiyasi til ta’limi oldiga yoshlarda muayyan kompetensiyalarini, xususan, lingvistik, nutqiy, kreativ (mustaqil va ijodiy fikrlash), pragmalingvistik singari kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini qo‘yadi. O‘quvchining nutqiy kompetensiyasi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir. So‘zlovchi til haqidagi bilim asosida nutqiy faoliyatga kirishsa-yu, lekin nutqiy tajriba yordamida hosil bo‘ladigan bilimga yetarli darajada ega bo‘lmasa, unda lingvistik kompetensiya to‘liq shakllanma-ganligi sezilib qoladi [5].

Tilning nazariy jihatlari, qonun-qoidalari ta’lim jarayonida o‘rgatiladi va natijada o‘quvchilarda til haqidagi bilimlar majmuasi yaratiladi. Til sathlari, tilning qurilishi va funksiyalari haqidagi bilim, ko‘nikmalar va ularidan turli vaziyatlarda o‘rinli foydalanish mahoratiga lingvistik kompetensiya deb qaraladi, ya’ni til vaziyatlarida bilim va ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llay olish tajribasi tushuniladi. Buni yanada soddarroq qilib, til bilimining yetukligi desa ham bo‘ladi.

Lingvistik kompetensiya o‘quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo‘limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmasi va malakasi bo‘lib, muayyan

izchillikda qo‘llash natijasida takomillashib boradi. Tilshunos olim, filologiya fanlari doktori N.Uluqov fikricha, lingvistik kompetentlik quyidagilardan tarkib topadi:

- 1) o‘z fikrini ona tilida ravon, tushunarli, aniq va lo‘nda ifodalay olish;
- 2) adabiy tilda so‘zlash;
- 3) imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarsiz yoza olish;
- 4) davlat tilida ish hujjatlarini yurita olish;
- 5) xorijiy tillarni bilish va hokazo.[9]

XULOSA

Demak, lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi, eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o‘rtasidagi munosabatdan iborat. Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning nutqini rivojlanishti-rishdajuda katta samara beradi. Nutqning rivojlanishi esa, o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sон Farmoniga 1-ilova. 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiysi.
2. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlod” nashriyoti. 2006-y.
3. G‘ulomov A., Qodirov M. “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Universitet” nashriyoti. 2001-y.
4. Fulomov. Ona tili o‘qitish printsiplari va metodlari. Toshkent. O‘qituvchi, 1992-yil.
5. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyatda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. Monografiya. – Toshkent: RTM, 2000.
6. Yusupova Sh., Rejapova D. Integratsiyali darslar tashkil qilish metodikasi. – Andijon, 2007.
7. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
8. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
9. Hamroyev A. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: Ped. fan. dok... dis. – Toshkent: 2020.